



MUHAMMAD AMINXO`JA MUQUMIY HAYOTI VA IJODINI O`RGANISH

Azimjonova Rayhona Zohidjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

azimjonovarayhona4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk o‘zbek shoirlaridan bo‘lgan, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiylayot yo‘li va asarlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot tasvirlari tahlil qilingan. Shuningdek uning asarlari va ijodi haqida ham ta’riflangan. Bundan tashqari bu buyuk shoirning bugungi kunda ham mavjud qarashlari va uning xalq ommasi orasida mavjudligi ham keltirigan.

Kalit so’zlar: *xalq og`zaki ijodi, xalqchil, shoir merosi, mukammal*

Shoir va mutaffakir, o‘zbek demokratik adabiyoti asososchilaridan biri Muhammad Aminxo‘ja Muqumiylayot 1850-1903 yillar yashab ijod etgan xajvchi shoir. U Qo‘qonning Bekvacha mahallasida tavvalud topgan. Otasi toshkentlik, onasi xo‘jandlik bo‘lib, Qo‘qonda yashaganlar. Muqimiylayot boshlang‘ich ma’lumotni mahallasidagi maktabda olgan. Onasi Oyshabibi juda aqli so‘z boyligi kuchli, xalq og`zaki ijodini mukammal o`rganganligi sababli xar qanday jamoani etiborini o`ziga qaratgan.

Ona tili eng avvalo, xalq og`zaki ijodida vujudga keldi. Onalar allasi xalq og`zaki ijodining yuragi bo`lib hayotiy taraqqiyotining eng avvali hisoblanadi. Shu sababli onalar allasi orqali ona tili go‘dakning qulog‘iga kirib, uning ongiga singib boraverdi. Natijada kishi ulg‘aygan sayin ona tili haqidagi tuyg‘u tobora mustahkamlanib iyomon-e’tiqodga sodiq kishigina o‘z tilimizni e’zozlaydi, asrab avaylaydi, hozirgi davrimizga qanday yetib kelgan bo‘lsa tilimizga xiyonat qilmay, kelajak avlodga yetkazib beradi. Qadimdan turkiy til fidoyilari tufayli tilimiz



toshbitiklarda o‘z aksini topdi. Xususan, O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida qadimgi turkiy tilda o‘zlarining qimmatli pand-nasihatlarini o‘qib-o‘rganib kelinmoqda. Bular dastlabki turkiy til sohiblarining tilimizga bo‘lgan e’zozlaridan qalbimizni g‘ururga to‘ldiradi. Prezidentimizning nutqida shunday so‘zlar keltiriladi: “Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar, Shu tilda buyuk-madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratgan”. Aynan Oyshabibi farzandi Muhammad Aminxo‘jada she’riyatga havas uyg‘otgan.

Shoir dunyoqarashi va intilishlari bilan zamona muhiti o‘rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo‘nalishni maydonga keltirgan. Shoiring ilg‘or dunyoqarashi farovon hayot va ozod turmush, insof va adolat, barkamol inson va insoniylik, iymon-etiqod va ilm haqidagi orzulari bilan mustamlaka sharoiti, mavjud adolatsiz tuzim, zo’ravonlik hukm zamona o‘rtasidagi nomutanosiblik Muqumiy ijodida voqealikka nisbatan keskin tanqidiy munosabatning uzil-kesil shakllanishiga olib keldi. O’tgan asrning 90-yillariga kelib shoir davr adabiyotidagi kuchli tanqidiy-satirik yo‘nalishining yetakchisiga aylandi. Hayotni, borliqni haqqoniy tasvirlashni ijodda asosiy mezon deb qabul qilgan shoir, ayni zamonda, qalam ahlini xalqchil mavzularni topishga, omma dili va intilishiga mos “xalq tolib” asarlar yaratishga davit etdi.

Aflok kajraftor uchun, har dam ko‘ngul afgor uchun,

Ho‘qand tang-u tor uchun, sahro chiqish darkor ekan.

Bordim shahardin «Yakkatut», baqqoli duzdi badburut,

Bir tanga sotkay bir qurut, insofi yo‘q, tarrow ekan.

Bu uning hajviyotida ko‘proq aks etgan. U 30 ga yaqin hajviy asarlar yaratgan: «Tanobchilar», «Saylov», «Dar mazammati zamona», «Hajvi halifai Mingtepa», «Devonamen», «Ko‘samen», «Hayron qildi loy», «Pashshalar»,



«Shikoyati bezak», «Ta'rifi pech», «Aroba qursin», «Loy». Muqumiyl qoldirgan adabiy merosning katta bir qismi jozibador g'azallar, sho'x va jo'shqin murabbalar, dilkash muxammaslar tashkil etadi. Shoир lirikasini ham g'oyaviy, ham badiiy kamolotga erishuvilda xalq og'zaki ijodi bilan bir qatorda ko'p asrlik sheriyatimizning, xususan, Lutfiy, Naviy, Bobur, Mashrab, Amriy kabi shoirlarning ijodi samarali ta'sir qildi. Muqimiyl adabiyotimiz tarixidagi eng ko'p murabba' yozgan shoirlardan biri bo'lib, bu qadimiyl turning rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shoирning murabbalarining barchasi, ishq-muhabbat mavzuida. Xalq qo'shiqlari ruhi va o'ynoq vazinlarda yaratilgan murabbalar nihoyatda samimiyl, sho'x va jo'shqin yangrab, kitobxonlarni o'ziga rom etadi. "Ey chehrasi tabonim", "Bir so'rmading, ey dilrabo, na bo'ldi?", "Emdi sendek, jono, jonon qaydadur!", "Tokim, jono, jilva bunyod aylading" misralari bilan boshlanuvchi murabba'lar o'sha yaratilgan yillaridayoq hofizlar ijrosida Muqimiylga katta shuhrat keltirgan.

*Ohkim, shod aylamas kulbamga jononim kelib,
Jon berurman so'rsa bir yo'l mohi tobonim kelib.
Hasratidin o'rtanib kuymay netarmen, do'stlarim,
So'rmasa holimni ul sarvi gulistonim kelib.*

Shoir bir necha o'nlab muxammaslar ham yaratgan, ular orasida o'z mazmuni va ruhiga ko'ra sof ijtimoiy va satirik yo'nalishdagilari uchrasa ham, ko'pchiligi ishq-muhabbat mavzuidadir. Shoир merosida Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Amriy g'azallariga, shuningdek, Furqat, Zavqiy, Nodim kabi zamondoshlari hamda o'z g'azallariga taxmislari ham ancha-muncha.

Muqimiyl lirik shoир sifatida qanchalik mashhur bo'lgan bo'lsa, kuchli satirik sifatida ham xalq orasida shunchalik katta shuhrat qozongan. Shoир bu tur asarlari uchun mavzu va timsollarni o'sha hayotdan olib, o'ziga yaxshi tanish voqeahodisalarni tanqidiy tahlil etdi, o'sha davr ruhidan oziqlandi. Mashhur



“Tanobchilar” satirasining yaratilishida Navoiy merosidan bahramand bo‘lgan. Nihoyatda o‘tkir “Hapalak qishlog‘i haqida” hajviy muxammasi esa Maxmurning g‘azaliga taxmisdir. Lekin, Muqimiy hajviyoti uchun “xom ashyni”, avvalo chorizm o‘rnatgan mustamlakachilik tartibi, hukmron adolatsizlik va zo‘rovonlik, inson haq-huquqining toptalishi, chor va mahalliy amaldorlarning o‘zboshimchaligi va shafqatsizligi, aldamchilik va axloqiy tubanliklar berdi. Mehnatkash omma, hunarmandlarning og‘ir iqtisodiy ahvoli, mustamlaka zulmi ostidagi shahar-qishloqlarning vayronaga aylanishi, nochor shaxs taqdiri Muqimiy hajviyotida yetakchi o‘rinni egallaydi. Muqumiy o‘z lirikasini chin sevgi, sadoqat va vafodorlikni, insonni ko‘rkamlashtiruvchi, uni manaviy go’zal etivchi fazilatlarni ulug’ladi, bevafolik, subutsizlik, inson sha’niga dog’ tushiruvchi xislatlarni qoraladi. Bir necha bor Toshkentga sayohat qilgan (1887—88, 1892), Toshkentdagi yangiliklar bilan tanishgan. Toshkent madaniy va adabiy hayotini chuqur o‘rgangan. Almaiy, Nodim kabi ilg‘or ruhdagi ijodkorlar bilan aloqa bog‘lab, ijodiy hamkorlik qilgan. Muqimiy yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab edi. Bunday muhit Muqimiy ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

*Gulo, ovorai har du jahon qilding, o‘zing qilding,
Niholi qomatimni notavon qilding, o‘zing qilding.
Ko‘ngul mulkin sitam birla ziroatgohi g‘am aylab,
Yuzimni xalq ichinda za’faron qilding, o‘zing qilding.*

Ijodining ilk davrida qisman shaklbozlik unsurlari, san’atpardonlik mayllariga berilish ham uchraydi. Lekin tezda bu xil an’analardan voz kechib, jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi. Navoiy, Jomiy, Nizomiy va Fuzuliydan o‘rgandi, ular g‘azallariga muxammaslar bog‘ladi. Jomiyni o‘ziga ustoz bildi. O‘zbek, fors mumtoz shoirlari an’analarini davom ettirdi. O‘zbek adabiyotida demokratik yo‘nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan bog‘liq. U boshliq Furqat, Zavqiy, Avaz, Komil



kabi ilg‘or fikrli shoirlar o‘zbek adabieti tarixida yangi sahifa ochdilar. Muqimiy lirikasi chuqur optimizm bilan sug‘orilgan, hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlaridan. Muqimiy real muhabbatni, insonni kuylagan. She’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalar, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do‘stlik, sadoqat, samimiyat, vafodorlik, sabot va matonat ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamonni orzu qilgan, shunday kunlar kelishiga ishongan («Kelur oxir seni ham yo‘qlag‘udek bir zamon yaxshi» va boshqa). Hasrat, shikoyat, norozilik motivlari mavjud bo‘lgan she’rlarida ham kelajakka ishonch, farovon hayot haqidagi orzu-ideallari aks etgan.

Muqimiy dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit o‘rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo‘nalishni maydonga keltirgan. Bu uning hajviyotida ko‘proq aks etgan. Hajviyoti mazmunan satira va yumorga bo‘linadi. Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib tashlangan («Tanobchilar» va boshqa) «Saylov», «Dar mazammati zamona» va boshqada o‘lkaga kirib kelayotgan kapitalistik va g‘ayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlari ko‘rsatilgan. Ba’zan, o‘sha davrdagi hukmron qarashlarga ergashib, Dukchi eshon haqida ham hajviy asarlar yozgan («Hajvi halifai Mingtepa»).

Muqimiy o‘zbek adabiyotiga ishchilar mavzuini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi («Maskovchi boy ta’rifida», «Voqeai Viktor» va b.). Turli shahar va qishloqlarga qilgan sayohatlari taassurotlari asosida 4 qisqli «Sayohatnoma» asarini yozdi. Asar yengil, o‘ynoqi vaznda yozilgan, 4 misrali bandlardan tashkil topgan.

Mutafakkirning ijodini o‘rganish, asarlarini to‘plash va nashr ettirish u hayot davridayoq boshlangan. Rus olim va tanqidchi Ostroumov «Devoni Muqimiy» to‘plamini 1907 yilda nashr qilgan, keyin esa 1910, 1912-yillarda «Devoni



Muqimiy maa hajviyot» nomi bilan asarlari to‘plami nashrdan chiqqan. Bir necha o‘n yillardan so`ng esa G‘.G‘ulom, Oybek, H. Zarifov, H. Yoqubov, H. Razzoqov, G‘. Karimov, A. Hayitmetov va boshqalar Muqimiy ijodini ilmiy taxlil etib, o‘z asarlarida ko`pgina ijobiy fikr bildirganlar. She’rlaridan na’munalar va parchalar chet tillarga tarjima qilingan. Qo‘qonda uy-muzeyi tashkil etilgan. Farg‘ona viloyatidagi shaharcha, Toshkent ko‘chalari va maxallasidan biri, O‘zbek davlat musiqali drama teatri Muqimiy nomi bilan ataladi. Shoir haqida Sobir Abdulla «Mavlono Muqimiy» romani va «Muqimiy» dramasini yaratgan. Muqimiyning aksariyat g‘azallari ashulaga aylangan.

Ijodkor va u yashagan ijtimoiy-tarixiy muhitning o‘zaro munosabatini haqqoniy belgilash. Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy va XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo‘qon ijtimoiy-tarixiy muhiti masalasi shu paytgacha holis va mufassal o‘rganilgan, deyish qiyin. Sho‘ro davridagi tadqiqotlarda bu mavzuga o’sha davr hukmron mafkurasi talablari asosida yondashilgan va Muqimiy Demokratik adabiyot vaki sifatida isyonkor shoir o‘larok talqin etilgan. Uning hajviy asarlari ham adabiy-estik qonuniyatlar asosida emas, sinfiy-mafkuraviy asosda baxolangan. Mustaqillik zamonida yaratilgan "Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti" darsligida shoir adabiy me’rosi nisbatan holis ilmiy yoritilgan, deyish mumkin. Professor Begali Qosimov shoir va ijtimoiy muhit munosabatlari masalasiga quyidagicha munosabat bildiradi: "Shoirlardan Muqimiy, bir tomondan, mumtoz adabiyotimizdagi eng yaxshi an‘analarni davom ettirdi. Ikkinci yoqdan, rus istilosи tufayli ijtimoiy xayotda kechayotgan o‘zgarishlarni adabiyotta olib kirdi. Masalalan, zavod-fabrikalar ishga tushib, ishchilar sinfining maydonga chiqishi, tili, dini, urf-udumlari, xayot tarzi keskin farq qiluvchi yevropaliklarni Turkistong kirib kelishi va buning mahalliy xalqqa, uning turmushiga yetqazgan ta’siri, yevropalashuv tomon qo‘yilgan qadamlarning yaxshi-yomon jihatlari tahlili Ilk daf‘a Muqimiy ijodida aks etdi. Muqimiy yangilana boshlagan adabiyotning g‘oya



va mazmunigagina emas, shaklu ifodalariga ham ma'lum yangiliklar kiritdi. Ijtimoiy fikrga, jamiyat tanqidiga maxsus diqqatni qaratdi". Shunga qaramay, darslik muallifari: "Shoir bosib o'tgan murakkab ijodi yo'l va uning sermazmun adabiy merosini mustaqillik, millat va vatan manfaatlari nuqtai nazaridan qayta ko'zdan kechirish va xulosalar chikarishga ehtiyoji borligini alohida takidlaydi ...

Xulosa qilib aytadugan bo'lsak, Muqimiy o'z asarlarida o'zi yashab o'tgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ma'lumot bera olgan. Bundan tashqari u o'z davridaadolatparvarlardan biri bo'lgan va jamiyatdagi turli illatlarni har doim tanqid qilib kelgan. U uchun o'zining yaxshi yashashi emas, balki jamiyat farovonligi birinchi o'rinda turgan. U xalq qadriyat va ana'analarini hurmat qilgan va o'z davrida oddiy inson bo'lib, xalq orasida katta hurmatga ega bo'lgan shaxslardan biri bo'lgan. Uning hayot yo'li insonlar uchun o'rnak sifatida qarash mumkin. Chunki u har doim adolat tarifida bo'lgan va jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shishga harakat qilib yashagan. Shundan kelib chiqqan holda Muqimiyning hayotini va asarlarini nafaqat O'zbekistonda balkim butun dunyoda keng jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa yoshlar tarbiyasida Muqimiy tamoyillargi tayanish orqali yaxshi natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [G'ofur G'ulom, "Tanlangan asarlar". Toshkent-1953.](#)
2. [G'ulom Karimov., "Muqimiy", T.: "Manaviyat". 2009](#)
3. [F Karimov., Mukimiyl. Hayoti va ijodi, T., 1970](#)
4. [M. S. Muhiddinova, Muqimiy ijodiga bir nazar, PEDAGOGS Jurnali, , Retrieved from https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/2023](#)
5. [A Xushanov., Muqimiy hajviyotida shakl va mavzu rangbarangligi https://doi.org/10.5281/zenodo.6741059](#)
6. [G'Karimov., Muqimiy, Asarlar., Toshkent-1974](#)



7. M. Мухитдинова, Творчество Мукими как современный литературный текст находится в образе сегодняшних проблем,Centralasian journal of theoreticaland applied sciences
8. <https://corp.uzairways.com/uz/muhammad-aminxoja-muqimiy-1850-1903>
9. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-1850-1903>
10. Q. Pardayev Muqumiylarining matniy-qiyosiy tahlili
11. <https://bilimlar.uz/muqimiy-1850-1903/>
12. Avaz Nuriddinov Muqumiylarida aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tasviri.